

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘AFFAROV MAQSADBEK QADAMBOYEVICH**

**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA SHAHARSOZLIK MADANIYATINING**  
**VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI**  
**(MIL. AVV. IX-V ASRLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Urganch – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**G‘affarov Maqsadbek Qadamboyevich**

О‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi (mil. avv. IX-V asrlar).....3

**Гаффаров Максадбек Кадамбоевич**

История возникновения и развития градостроительной культуры на территории Узбекистана (IX-V вв. до н.э.).....24

**Gaffarov Maqsadbek Kadamboyevich**

The history of the emergence and development of urban planning culture in the territory of Uzbekistan (9th-5th centuries BC).....46

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘AFFAROV MAQSADBEK QADAMBOYEVICH**

**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA SHAHARSOZLIK MADANIYATINING**  
**VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI**  
**(MIL. AVV. IX-V ASRLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Urganch – 2024**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Tar 1649 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Sabirov Kurbanbay,</b> tarix fanlari nomzodi, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Eshov Bahodir Jo'raqulovich</b> Tarix fanlari doktori, professor <b>Turganov Baxit Kurbanbayevich</b> tarix fanlari nomzodi, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston</b> <b>Milliy universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7 yanvar" soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks (99862) 224-57-00; e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz))

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-1559 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "25" dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil "    " 25-dekabr dagi 15 raqamli restr bayonnomasi.)



**M. K. Saribaev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, dotsent

**X. X. Matyakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

**U. I. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** XXI asr boshlarida jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy integratsiyasiga zamin yaratishi barobarida xalqlarning madaniy yaqinlashuvi va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Ushbu yo‘nalishda xalqaro tashkilotlarning turli mintaq va xalqlarning tarixiy - madaniy merosini targ‘ib etish borasidagi faoliyati alohida e‘tiborga molik bo‘lib, ayniqsa, qadimiy xalqlar qoldirgan moddiy meros va ularning ma‘naviy qadriyatlarini saqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu tariqa o‘troq va ko‘chmanchi sivilizatsiyalarning o‘zaro madaniy-iqtisodiy munosabatlar ildizlariga hamda madaniy muloqot saboqlariga murojaat etish ahamiyati jahon miqyosida tobora o‘sib bormoqda. Dunyoda xalqlarning tashqi aloqalari, O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi qadimgi tarixiy-madaniy jarayonlarda tutgan o‘rni va ahamiyati qadimgi sivilizatsiyalarning o‘zaro ta‘siriga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, qadimgi savdo yo‘llarini qayta tiklash, O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyati tarixini moddiy va ma‘naviy madaniyatini asrab-avaylash hamda yanada rivojlantirish, umummintaqaviy madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasining ahamiyatini yoritishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikada amalga oshirilgan tub islohotlar ijtimoiy fanlar oldiga ham qator vazifalarni qo‘ymoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, tarix fanining muhim mavzulari bo‘yicha ilmiy izlanishlarni tashkil etish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, “... xalqlarimizning boy madaniy merosini chuqur o‘rganish, turli tadqiqotlar olib borish hamda jahon miqyosida targ‘ib qilish katta ahamiyatga ega”<sup>1</sup>. Bu, o‘z navbatida, turlicha yangi ilmiy-amaliy vazifalarni yechish zaruratini talab etmoqda. Shu bois O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi tarixini ko‘rib chiqish hamda umumlashtirilgan holda xulosalar chiqarish mintaq tarixini yangi ilmiy ma‘lumotlar bilan boyitish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 30 - avgustdagi PQ - 4433-son “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Shu ma‘noda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini “O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish to‘g‘risida” gi (1996 - yil 16 - dekabr), “Xorazm Ma‘mun akademiyasini qayta tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori (1997 - yil 11 - noyabr). O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Oliy majlisga murojaatnomasida” madaniy meros obyektlarini ishonchli qo‘riqlash va ulardan oqilona foydalanish tizimini takomillashtirish maqsadida arxeologik tadqiqotlarini

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy Kengashning videokonferensiya shaklida o‘tkazilgan Sammitidagi nutqi // Xalq so‘zi. 2021-yil, 1 - aprel.

qo‘llab-quvvatlash va arxeologik topilmalarini saqlash dasturini ham qabul qilish lozim deb qayd qilganligi ilmiy ahamiyatga molik<sup>2</sup>.

Prezidentimiz tomonidan 2018 - yil 17 - yanvaridagi F - 5181-son “Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risidagi farmoyishi” da qayd qilingan dolzarb vazifalar hozirgi davr kun tartibiga qo‘yilganligini qayd qilish joiz<sup>3</sup>. Tanlab olingan tadqiqot mavzusi yuqorida qayd qilingan murojaatnoma hamda farmoyishda qayd qilingan vazifalarning bajarilishiga ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy - ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston viloyatlari hududida joylashgan bronza va temir davriga oid aholi markazlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini uch tarixiy davrga ajratish maqsadga muvofiq.

1 - tarixiy davr: XX asr 30 - yillar o‘rtalari – 40 yillari.

2 - tarixiy davr: XX asr 40 - yillari o‘rtalari – 90 yillari oxiri.

3 - tarixiy davr: Mustaqillik yillarida aholi turar-joylarida qazishma ishlari natijalari.

Birinchi tarixiy davrda S.P. Tolstov rahbarligida arxeologiya ekspeditsiyasi hodimlari dala amaliyoti davrida ro‘yxatga olingan Ko‘zaliqir mudofaa tizimida olib borgan qazishma ishlari natijalari miloddan avvalgi VI - V asrlarga oidligi qayd qilingan<sup>4</sup>.

Ikkinchi tarixiy davrda O‘zbekiston hududida turli nomga ega bo‘lgan arxeologik ekspeditsiya va guruhlar hodimlari ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan madaniy meros obyektlarida arxeologik izlanishlarni faol olib borganlar. M. A. Itina Yakkaparsan-2, M. G. Vorob‘eva Dingilja, D. Durdiyev Qang‘qalada qazishma ishlarini olib borib temir davri jamiyati tarixini yoritadigan manbalarni olganlar<sup>5</sup>. A. Asqarov Sopollitepa, Jarqo‘ton, Kuchuktepada, Y. A. Zadneprovskiy Farg‘ona vodiysida Chust va Dalvarzintepada temir davriga oid ashyolar olishga muvassar bo‘lganlar<sup>6</sup>.

---

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон республикаси президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси. – Тошкент. 2017.

<sup>3</sup> Ўзбекистон республикаси президентининг 2018 - йил 17 - январдаги – Ф – 5181 - сон “Моддий, маданий ва археология мероси объекларини мухофаза қилиш ва улاردан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида” ги фармойиши (elektron resurs).

<sup>4</sup> Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: МГУ. 1948. – С. 81. рис 20.

<sup>5</sup> Итина М. А. Поселение Якке-Парсан-2 // Раскопки 1958 - 1959 гг // МХЭ. – М.: “Наука”. 1963. Вып-6. – С. 10 - 129.; Воробьева М. Г. Дингильдже. Усадьба середины I тыс-я до.н.э в Древнем Хорезме // МХЭ. – М. 1973. Вып-9. – С. 5 - 75., Дурдиев Д. Канга-2 поселения эпохи поздней бронзы // Проблемы археологии Туркменистана. – Ашхабад. “Ълым”. 1989. – С. 31 - 37.

<sup>6</sup> Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент. “Фан”. 1973. – С. 3-128.; Аскарлов А, Абдуллаб Б. Джаркутан. – Ташкент. “Фан”. 1983.; Аскарлов А, Альбаум Л. И. Поселение Кучуктепе. – Ташкент. “Фан”. 1979. – С. 17 - 18.; Заднепровский Ю. А. Чустская культура Ферганы и памятники железного века Средней Азии // Авто.реф. докт. – Л. 1978. – С 30 - 32.

Uchinchi tarixiy davrda O‘zbekiston madaniy-xo‘jalik markazlarida arxeologik izlanishlar olib borilib, so‘nggi bronza va temir davri tarixini o‘rganish davom etdi. Tadqiqotchi Q. Sabirov risolasida O‘rta Osiyo tarixiy-geografik hududlarda tosh asridan bronza oxirigacha aholi turar-joylari tarixini yoritgan bo‘lsa, B. Eshov esa ilk aholi markazlari tarixiga e‘tiborini qaratgan<sup>7</sup>. M. X. Isamiddinov Samarqand shahri misolida O‘rta Zarafshonda shaharsozlik madaniyatini rivojlanish bosqichlarini taxlil qilgan<sup>8</sup>. I. T. Yo‘ldoshevning Farg‘ona vodiysida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, D. Qurbonova tadqiqotida Xorazmning qadimgi va ilk o‘rta asr davri moddiy va ma‘naviy madaniyati tarixi o‘rganilgan<sup>9</sup>.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi mazmunini aks ettirgan vazifalar O‘zbekiston tarixi sohasidagi mamlakatimizda olib borilayotgan ustuvor ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishiga mos keladi. Urganch Davlat universiteti, Xorazm Ma‘mun akademiyasi, Urganch innovatsion universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021 – 2022 - yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san‘ati tarixi” nomli fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyati shakllanishi va rivojlanish tarixini yoritishdan iborat (mil. avv. IX - V asrlar).

**Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekistonning bronza asri va temir davrida kechgan etnik munosabatlar ta‘sirida shakllangan madaniy-xo‘jalik markazlarinig geografik yechimlarini aniqlash;

O‘zbekistonda bronza asri va temir davri madaniy-xo‘jalik mikrovohalarning rivojlanish bosqichlariga aniqliklar kiritish;

O‘zbekistonning bronza va temir davri yodgorliklarini o‘rganilish natijalari asosida yangi xulosalar chiqarish;

tadqiqotga doir XX - XXI asr boshlari tarixshunosligi masalalarini o‘rganish va tahlil qilish;

shaharlarning vujudga kelishini geografik sharoiti va iqtisodiy omillari masalalariga oydinliklar kiritish;

O‘zbekiston hududida bronza davrida loy me‘morchilik maktabining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini yoritish berish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyati tarixi tanlab olingan.

**Tadqiqot predmeti** O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari:** Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy tahlil, taqqoslash, ilmiy ma‘lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

---

<sup>7</sup> Саби́ров К. Ибтидоий кулбалардан шаҳарлар сари. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 1992. – С. 2 - 22.; Эшов Б. Цивилизация тизимида ilk шаҳарлар. – Тошкент. 2004. – Б. 38 - 54.

<sup>8</sup> Исомиддинов М. Х. Генезис городской культуры Самаркандского Согда // Автореф. дисс.. док. истор. наук. – Самарканд. Институт археологии. АН Уз ССР. 2000. – Б. 42.

<sup>9</sup> Курбонова Д. Хоразм воҳасининг қадимги ва ilk ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент. Алишер Навоий номидаги “Ўзбекистон миллий кутубхонаси” нашриёти. 2015. – Б. 181.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston hududida bronza davri jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga oydinliklar kiritildi va bronza davrining so‘nggi bosqichida O‘zbekiston hududida kechgan etnomadaniy munosabatlar jarayonlarini tahlil qilish kabi dolzarb vazifalarni ilmiy echimiga oid yangi xulosalar berilgan;

O‘zbekiston tarixiy-madaniy viloyatlarida so‘nggi bronza va temir davri jamiyatlarining notekis rivojlanishi va uning natijasida shaharsozlik madaniyatining bir tekis rivojlanmasligi omillari tahlil qilindi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi;

so‘ngi bronza va temir davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarni rivojlantirish omillariga aniqliklar kiritildi;

O‘zbekiston tarixiy-madaniy hududlarida so‘ngi bronza va temir davri aholisining joylashishi, etnik munosabatlar markazlari bo‘lgan madaniy-xo‘jalik markazlar, uning doirasida mikrovohalarning tarixiga oid innovatsion g‘oyalar ilgari surildi.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Dissertatsiyada O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanish tarixiga oid yozma va arxeologik ma’lumotlar tizimlashtirilib, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi hamda rivojlanish tarixining tarixiy geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi va madaniyati bilan bog‘liq ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi;

tadqiqotning fanlararo xususiyatidan (arxeologiya, manbashunoslik, kartografiya, tarixiy geografiya va etnogeografiya) kelib chiqqan holda qadimgi davr etnik jarayonlar tarixi bo‘yicha qarashlar va nazariyalarni takomillashtirish imkoniyati mavjud;

tadqiqot natijalarining ishonchliligi qadimgi tarixni o‘rganishda asl manbalar, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy uslubiy-nazariy yondashuvlardan foydalanilganligi, xolislik tamoyillarining qo‘llanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** hozirgi davr tarix fanida aprobatsiyadan o‘tgan usullar va e’tirof etilgan yondashuvlarning qo‘llanilganligi, asl manbalar va ilmiy adabiyotlar ma’lumotlaridan foydalanilganligi va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarix fani sohalarida yangicha yondashuvlar va ilmiy yo‘nalishlarni yaratish vazifalarini amalga oshirish, tarixiy-madaniy merosni targ‘ib qilish, tarixiy tadqiqot usullarini takomillashtirish hamda ularni yanada rivojlantirishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi tahliliy ma’lumot va xulosalardan oliy ta’lim tizimida tarix yo‘nalishini yanada rivojlantirish, O‘zbekiston tarixini o‘rganish va yangi avlod o‘quv darsliklari va qo‘llanmalarni yaratishda, ularni yangi ma’lumotlar bilan boyitish jarayonida foydalanish mumkin.

Dissertatsiyada O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanish tarixiga oid yozma va arxeologik ma’lumotlar tizimlashtirilib, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida O‘zbekiston hududida shaharsozlik

madaniyatining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy geografiyasi, ijtimoiy - iqtisodiy tarixi va madaniyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi (mil. avv. IX-V asrlar) mavzusi bo‘yicha chiqarilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

O‘zbekiston hududida bronza davri jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanish darajasiga hamda so‘ngi bronza va temir davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarni rivojlantirish omillariga aniqliklar kiritilishi bo‘yicha natijalardan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 24-yanvardagi 10/235-son ma‘lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixiy-madaniy parklarning hamda muzeylarning yangi ekspozitsiyalarini tashkillashtirish va turizmni rivojlantirish jarayonida yangi ma‘lumotlar va ilmiy tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston tarixiy-madaniy viloyatlarida so‘ngi bronza va temir davri jamiyatlarining notekis rivojlanishi va uning natijasida shaharsozlik madaniyatining bir tekis rivojlanmasligi omillari tahlil qilindi hamda unga oid yangi xulosalar chiqarish va uning yangicha baholash zarurati isbotlash jarayonlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 24-yanvardagi 10/235-son ma‘lumotnomasi). Olingan ilmiy natijalar O‘zbekiston hududida shaharlarning topografik joylashishi, qurilish ashyolari, mudofaa inshootlarini muhofaza qilish, qayta tiklash va ta‘mirlash ishlarini davom ettirish borasida zamonaviy texnologik yutuqlarini hisobga olish, virtual muzeylarni tashkillashtirish hamda yodgorliklardan foydalanishni takomillashtirish imkonini yaratgan;

so‘ngi bronza va temir davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarni rivojlantirish omillarni tahlil qilindi va ilmiy xulosalar chiqarilganligidan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DUK qoshidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanali “Ta‘lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” va “O‘zbekiston tarixi” ko‘rsatuvining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-yanvardagi 04-36-98-son ma‘lumotnomasi). Natijada, bu ma‘lumotlar yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va O‘zbekiston tarixiga oid bilimlarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

O‘zbekiston tarixiy-madaniy hududlarida so‘ngi bronza va temir davri aholisining joylashishi, etnik munosabatlar markazlari bo‘lgan madaniy-xo‘jalik markazlar, uning doirasida mikrovohalarning tarixiga oid innovatsion g‘oyalar ilgari surilganligi bo‘yicha xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DUK qoshidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanali “Ta‘lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” va “O‘zbekiston tarixi” ko‘rsatuvining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-yanvardagi 04-36-98-son ma‘lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston hududida shaharsozlik madaniyati tarixini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni asosida so‘ngi texnologiyalarni ilmiy muomalaga joriy qilish va 3 D formatda qadimgi shaharlarning virtual shakllarini yaratish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy konferensiyalarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta maqola, jumladan 5 ta respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va shartli qisqartmalar ro'yxati hamda ilovadan iborat bo'lib, ishning tadqiqot qismi 130 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Mavzuning manbalarda aks etishi va tarixshunoslik jihatdan o‘rganilishi**” deb nomlangan. Uning “*O‘zbekistonning bronza va temir davri yodgorliklarini o‘rganilish natijalari*” sarlavhali birinchi bandida bronza va temir davri yodgorliklari tarixini o‘rganilish masalalari yoritilgan.

O‘zbekiston hududi yuzasi tuzilishi tog‘ va tekisliklardan iborat bo‘lishi, joylashish hususiyatlari yer osti tebranishlarini bir necha marotaba takrorlanishi mahsuli sifatida Toshkent, Farg‘ona, Zarafshon, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo va Qoralpog‘iston respublikalari hududlari shakllangan. Mazkur sernam va serunum dehqonchilik vohalari qadimgi davrdan odamzot joylashib, madaniy izlarini qoldirganlar. Shu ma‘noda viloyatlarda turli nomda faoliyat olib borgan arxeologik ekspeditsiya va guruhlar ajdodlarimiz tamonidan qoldirilgan manzilgohlarda keng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida ibtidoiy jamoa tuzumi jamiyatining ilk paleolitdan kundalik faoliyatlarini bosqichma-bosqich bronza davrigacha rivojlantirish jarayonida murakkab tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan. Tosh davridan bronza asrigacha O‘zbekistonning tabiiy iqtisodiy hududlar geografik holatini namoyon qilgan manzilgohlarda istiqomat qilib, xo‘jalikni turli sohalarini tabiiy manbalardan foydalangan holda jamiyatning moddiy va ma‘naviy madaniyati bronza jamiyati rivojlanishiga amaliy asos bo‘lib hizmat qilgan. Shu ma‘noda markaz va mahalliy ilmiy markazlar hamkorligida hamda alohida tashkil qilingan arxeologik guruhlarining vatanimiz viloyatlarida ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan yodgorliklarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini inobatga olish joiz.

E. B. Bijanov Ustyurt platosi geografik holatini aks ettirgan Shaxpaxta havzasi atrofida qurib qolgan quduqlar yaqinidagi Qoraquduq, Churuk kabi manzilgohlardan olingan mehnat qurollari, tosh davri ilk bosqichiga mansub bo‘lgan<sup>10</sup>. M. Qosimov Toshkent viloyati Ohangaron vodiysida Ko‘lbuloq ochiq tipdagi manzilgohda o‘tkazgan qazishma ishlari munosabati bilan tosh davri ashel ilk bosqichiga tegishli ashyolarni olishga erishgan<sup>11</sup>. U. Islamov Farg‘ona vodiysi So‘x daryosi sohili hududiga ulanib ketgan Oloy tog‘ tizmasi Xaydarkon yaqinida Chashma qishlog‘ida yer sathidan 2000 m balandlikda joylashgan. Selengur g‘or - makoni madaniy qatlamidan tosh qurollarni olishga muyassar bo‘lgan<sup>12</sup>. Zarafshonning shimoli-

<sup>10</sup> Бижанов Е. Б. Памятники каменного века впадины Шахпахты /Археология Приаралья. – Ташкент. “Фан”, 1984. Вып-2. – С. 8-21.

<sup>11</sup> Касымов М. Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулак в Узбекистане // МИА, – М.: “Наука”. 1972. – № 185. – С. 5-35.

<sup>12</sup> Исламов У. И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Селенгур Ферганской долине // СА. – М.: “Наука”. – С. 115-116.

g'arbida Uchtut, Ijond va Vaxsh manzilgohlari madaniy qatlamlaridan ashel davri quyi bosqichiga mansub moddiy ashyolar olingan<sup>13</sup>. Demak, yuqorida qayd qilingan tabiiy-iqtisodiy hududlar ilk etnik jarayonlar bo'lib, qo'shni hududlarga yoyilish obyekti bo'lgan.

M. A. Itina tomonidan Sariqamishbo'yi havzasi janubi - g'arbiy hududiga ulanib ketgan Uzboyni shimoli va janubiy hududida Charishli va Togolok quduqlari atrofida Bala-Ishem-8, 9, 110, 113, 114 manzilgohlaridan eneolit davriga oid moddiy ashyolar olingan<sup>14</sup>. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarni inobatga olib, Kopetdog' oldi etaklari, Murg'ob daryosi va Tajan daryosi havzalari atroflari hamda Zarafshon vodiysi shimoli-sharqida Sarazm qishlog'ida aholi tomonidan qoldirilgan turar-joylarda arxeologik izlanishlar olib borilib, olingan ashyolar, mazkur tarixiy davrda kechgan tarixiy jarayonlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan A. I. Isakov Zarafshon vodiysi shimoli-g'arbida Sarazm qishlog'ida aholi tomonidan qoldirilgan yodgorlikda olib borgan qazishma ishlari natijasida olingan moddiy ashyolarni Kopetdog' oldi etaklarida eneolit davrida shahar sifatidagi Namozgoh madaniyatini aynan takror qiladi degan xulosaga kelgan. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, uning egallagan maydoni 100 gektar bo'lib, u 10 ta tepalikdan iborat bo'lgan Sarazm yodgorligini qurilishi hamda madaniy-xo'jalik markazi vazifasini bajarishi 4 ta tarixiy (Sarazm I, II, III, IV) davrdan iborat bo'lgan<sup>15</sup>.

I. N. Xlopin Tajan daryosi quyi havzasida Geoksor vohasida 13 ta aholi turar-joylarida qazishma ishlarini olib borib (paxsa va to'g'riburchakli xom g'isht mudofaa devorga ega bo'lgan) eneolit davriga oid moddiy ashyolarni olishga erishgan. Manzilgohlar atrofidan Tajan daryosi shaxobchalaridan sug'orish inshootlarini chiqarib, sun'iy sug'orma dehqonchilik madaniyatini olib borganligiga asos bo'lgan xumlarni, uni olovda pishiradigan ikki qavatli xumbuzlar qoldig'i o'rganilgan<sup>16</sup>. Demak, o'troq hayot, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik sohasida yangi bilimlarning ixtiro qilinishi, mudofaa devorlar, ularning elementlari hamda loy ayol haykalchalari olinishi Kopetdog' oldi etaklarida eneolit davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarni yoritadigan manbalar olinishini ahamiyati beqiyos. Xuddi Kopetdog' oldi, Murg'ob va Tajan daryolari havzasi atroflari aholini qo'shni hududlarga yoyilish markazlari bo'lgan.

Bronza davri (mil. avv. III ming yillik o'rtalari - II ming yilliklar jamiyatida bir qator o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekistonning bronza davri aholi turar-joylarini arxeologik jihatidan o'rganilishi Quyi Amudaryo hududidan boshlangan. 1939 - yil oxirida S. P. Tolstov rahbarligida Xorazm ekspeditsiyasi hodimlari Sho'raxon qishlog'ida Norinjon yodgorligi atrofidan Qumtepaliklardan kulolchilik (xilma-xil

<sup>13</sup> Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент. “Ўқитувчи”. 1990. – Б. 20.

<sup>14</sup> Итина М. А. Работы Узбойского отряда в 1957 г.-КСИЭ. – М.: “Наука”. 1957. Вып XXVI. – С. 109-113.; О'sha muallif. Памятники первобытной культуры Верхнего Узбоя // ТрХАЭЭ. – М.: Наука. 1958. – Т. II. – С. 258-309.

<sup>15</sup> Исаков А. И. Саразм: Новый раннеземледельский памятник Средней Азии // СА. – М.: “Наука”. 1986. Вып 1. – С. 152-157.; О'sha muallif. Саразм. К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долине. – Душанбе. 1991. – С. 100-102.

<sup>16</sup> Хлопин И. Н. Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита. – М. – Л.: “Наука”. 1964. – С. 11-54.

bezakli) olingan ashyolar mil. avv. II ming yillikka oid bo'lgan (Angqa-5, Teshikqal'a 1,2)<sup>17</sup>.

O'tgan asrning 70 - 80 yillarida M. A. Itina bronza davri yodgorliklarini arxeologik jihatidan tadqiqotlari Sho'raxon qishlog'i atrofida hamda so'l sohilda Tuyamo'yin hududida olib borib moddiy ashyolarni olishga erishgan. Oqchadaryo havzasida Jonbos - Ko'kcha atroflarida manzilgohlarida keng qamrovli tekshirish ishlarini olib borgan. Misol tariqasida, Ko'kcha-15, Ko'kcha-16, Jonbas-30, 32, Bayram - Qazg'on - 2, Angqa - 5, Qavat - 3, Jonbas - 34 manzilgohlari yarim yerto'la, ichki tuzilishi aylana shaklda chuqurchalarga ega (aylanasi 60 - 62 sm), ularning madaniy qatlamlarida rang-barang bezakli va ulardan holi kulolchilik ashyolari olingan<sup>18</sup>.

XX asr 50 - yillaridan boshlab Ya. G'. G'ulomov rahbarligida Mohandaryo arxeologiya guruhi Amudaryo o'ng sohili Sho'raxon qishlog'i hududiga ulanib ketgan hududda ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi.

M. Mambetullayev rahbarligida arxeologiya guruhi Xivaning shimoli-g'arbiy devori ark ichki qismida qazish ishlari olib borilishi munosabati bilan avvalo uning o'rab olingan paxsa devori mil. avv. V asrga oid bo'lgan<sup>19</sup>. 2002 - yilda Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologiya guruhi hodimlari Xazaraspda qazish ishlari natijasida olingan ashyolar mil. avv. V asrga oid bo'lgan<sup>20</sup>. 2003 – 2005-yillarda B. X. Matboboev rahbarligida arxeologiya guruhi Dalvarzintepada arxeologik izlanishlarni olib borishi munosabati bilan mil. avv. VIII - VII asrlarga, Sarvontepada mil. avv. VI - V asrlarga oid ashyolar olingan<sup>21</sup>.

Birinchi bobning “XX - XXI asr boshlari tarixshunosligi masalalari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida O'zbekiston madaniy-xo'jalik hududlarida rus tadqiqotchilari hamda mahalliy ilmiy markazlarning qadimshunoslari keng qamrovli ravishda aholi turar-joylarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijalari ilmiy tahlil qilingan.

XX asr 20 - yillar oxirigacha Turkiston hududida tadqiqotchilar aholi turar - joylarni kuzatish, so'rovnomalar asosida ma'lumotlarni qamrab olgan tadqiqotlarda qayd qilingan ma'lumotlar ajdodlarimiz o'tmishini o'rganishga kalit bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston tarixida XX asr 30 - yillarning boshlarida ilmiy maqsadda bir qator ekspeditsiyalar aholi turar - joylarini o'rganish ishlarini olib borganlar. XX asr 20 - yillar oxirida A. Y. Yakubovskiy Amudaryo o'ng sohil hududida tekislikda bino qilingan Urganch (Toshhavuz viloyati) so'l sohili hududida Mizdaxkon

---

<sup>17</sup> Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: МГУ. 1949. – С. 32.

<sup>18</sup> Итина М. А. История степных племен Южного Приаралья (II- начало I тысячелетия до.н.э). – М.: “Наука”. 1977. Вып X. – С. 46 - 113.

<sup>19</sup> Мамбетуллаев М. М. Раскопки оборонительных сооружений Хивы // Вестник ККО АНРУз. – Нукус. 1992. – С. 112 - 115.

<sup>20</sup> Баратов С. П. Матрасулов Ш. Археологическое исследования в Узбекистане в 2002 г. – Тошкент. Узб МЭ. 2003. – С. 43-44.

<sup>21</sup> Матбабаев Б. Х, Абдуллаев Б. М. Зарождение городской фортификации Ферганы // Урбанизационные процессы в Узбекистане: История и современность. Материалы международной научно-практической конференции. – Ташкент. Часть-1. 2007. – С. 59.

yodgorliklarida arxeologik jihatidan tekshirish ishlarni olib borgan<sup>22</sup>. Tadqiqotchi xizmati ikki yodgorlik tarixiga oid moddiy ashyolarni ilk bor olganligi, uning tarixiga oid ma'lumotlarni qayd qilganligida bo'ldi. M. V. Voyevodskiy Turkmaniston respublikasi Toshhavuz viloyati Taxta tumanida tekislikka aholi tomonidan bunyod qilingan Zamaxshar yodgorligida qazishma ishlari natijasida yodgorlik tarixiga oid moddiy ashyolar olingan<sup>23</sup>. G. V. Grigorev Samarqand shahri yaqinida Tali - Barzuda tekshirish ishlarini olib borishi munosabati bilan Talu - Barzu I, II, III, IV, V, VI kabi xronologiyasini ishlab chiqqan, shundan mil. avv. VI - V asrdan-milodiy VIII asrgacha madaniy-xo'jalik makoni bo'lgan<sup>24</sup>. Tadqiqotchi Samarqand So'g'dida temir davridan milodiy VIII asr boshlarigacha yodgorlik qurilish tarixiga oid tarixiy ma'lumotlar e'lon qilishga muvaffaq bo'lgan. M. E. Masson Termiz yodgorligida arxeologik jihatidan o'rganish ishlari natijasida mil. avv. III asrga tegishli ashyolarni olib, uning tahlili asosida ilmiy ma'lumotlarni qayd qilgan<sup>25</sup>. V. A. Shishkin Qorako'l vohasida Varaxsha yodgorligidan olingan ashyolar mil. avv. II asrga oidligi to'g'risida xulosaga kelgan<sup>26</sup>. A. I. Terenojkin Xorazmda To'rtko'l va Beruniy tumanlari hududida arxeologik qidiruv ishlari natijasida 20 ga yodgorliklarni ro'yxatga oldi, ularni kartasini ishlab chiqqan.

V. A. Shishkin rahbarligida ekspeditsiya Buxoro vohasida, 1944 – 1949-yillarda Tyan - Shan – Oloy ekspeditsiyasi, 1946 – 1949-yillarda, 1950 - yilda Pamir – Farg'ona ekspeditsiyalari arxeologik izlanishlarni davom ettirdi, olingan natijalar adabiyotlarda o'z ma'nosini topgan. 1939 - yilda Xorazm ekspeditsiyasi Qizilqum geografik manzarasini namoyon qilgan Jonbosqal'a atrofida manzilgoh (Jonbos - 4) da istiqomat qilgan aholi xo'jaligini "Kaltaminor" madaniyati tarixiy adabiyotlar sahifasiga olib kirgan edi<sup>27</sup>. B. V. Andrianov Janubiy Oqchadaryo hududida Yakkaparon - 2 manzilgohida qisman qazishma ishlarini olib borib mil. avv. IX - VIII yoki mil. avv. X - VIII asrlar oidligi to'g'risida ma'lumotlarni tadqiqotlarida qoldirgan<sup>28</sup>. M. A. Itina monografiyasida mil. avv. II ming yillik I ming yillik boshlarida Janubiy Oqchadaryo havzasida Tozabog'yob va Andronova madaniyatlarni yaratgan aholini xo'jalik sohasini rivojlantirish sohasida

---

<sup>22</sup> Якубовский А. Ю. Раскопки Ургенча // Известия Государственной академии материальной культуры. – Л, 1930. Т. 6, Вып - 2. – С. 68.; O'sha muallif. Городище Миздахкан // Записки коллегии востоковедов. – Л, 1930. Т. 5. – С. 551 - 581.

<sup>23</sup> Vayevodsku A. Summary. Report of a Khwarizm. Expedition. Bull Amer Inst tor Iran. Art and Arch. 1938, – № 3. – С. 235 - 245.

<sup>24</sup> Григорьев Г. В. Городище Тали - Барзу. – ТОВЭ - II. Л. – С. 7-104.; O'sha muallif. Поселение древнего Согда // КСИИМК. – М.: "Наука". 1940. Вып. 4. – С. 150 - 153.

<sup>25</sup> Массон М. Е. Городище старого Термеза и их изучение. Труды УзФАН. Серия-1, Вып-2. 1940. – С. 68 - 102.

<sup>26</sup> Шишкин В. А. Археологические работы 1932 г в Западной части Бухарского оазиса // Изд Уз ФАН. – Ташкент, 1940.; Тереножкин А. И. Археологические разведки в Хорезме // СА. – М.: "Наука". 1940, Вып № 6. – С. 188.

<sup>27</sup> Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 59 - 65.; O'sha muallif. По следам древнехорезмийской цивилизации. – Л.: "Наука", 1948. – С. 66. Рис 18.; O'sha muallif. По древним дельтам Окса и Яксарта. – ИВЛ. "Наука", 1962. – С. 31.

<sup>28</sup> Итина М. А. Поселение Якке – Парсан - 2 (раскопки 1952 - 1959 гг) // МХЭ. – М.: "Наука", 1963 г. Вып-6. – С. 107 - 129.

bunyodkorlik faoliyatlari to'g'risida keng ma'lumotlarni keng ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilganligi alohida ahamiyat kasb etdi<sup>29</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekistonning paleogeografik hususiyati, etnogenetik jarayonlar ta’sirida madaniy-xo‘jalik hududlarining rivojlanish bosqichlari”** deb nomlangan. Uning “O‘zbekistonning bronza va temir davrida kechgan etnik munosabatlar ta’sirida shakllangan madaniy-xo‘jalik markazlarining geografik yechimlari” nomli birinchi paragrafida mavzuga oid bilimlarning rivojlanish jihatlari ochib berilgan.

XX asr adabiyotlari va XXI asr boshlaridagi tadqiqotlarda qayd qilingan ma'lumotlar vatanimiz tarixiy-geografik hududlari manzarasi, antropogen landshaftining shakllanishi va rivojlanish sharoitida bronza va temir davrlarida kechgan etnik munosabatlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>30</sup>. Geologik jarayonlarni bir necha marotaba takrorlanishi natijasida shakllangan Osiyo materigi yer yuzasi manzarasini xilma-xil tasvir qilgan bir necha fizik-geografik qismlardan iborat. Shunday qismlardan biri O‘zbekistonning Turon pasttekisligi markazida joylashishi, uning geografik holati, qulay iqlim sharoiti, aholining joylashishini tasvir qilgan Toshkent, Zarafshon, Farg‘ona, Surxondaryo va Xorazm tekisliklari o‘rnashgan aholi uchun tarixiy davr, uning turli bosqichlarida jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirishiga keng imkoniyat yaratib bergan. Tadqiqotchilar asarlarida qayd qilinishicha, bundan 4 - 3 mln yilliklarda Sariqamishbo‘yi, Orol, Qizilqum - Orol o‘rtasi tekislik ko‘rinishida bo‘lgan<sup>31</sup>.

Tadqiqotchilar fikricha, Qoratog‘ janubida joylashgan Uchtut, Ijond, Vaush va Kavobi manzilgohlari ashel davri so‘ngi bosqichiga oid bo‘lgan<sup>32</sup>. Arxeologik tadqiqotlarda Qizilqum shimolida ibtidoiy ovchilarga hizmat qilgan Ko‘k - Ayaz (I, II, III) manzilgohlari ashel davri quyi bosqichiga oid ekanligi to‘g‘risida ma‘lumotlar qayd qilingan<sup>33</sup>. Shu tariqa Farg‘ona, Toshkent, shimoliy Zarafshon, Ustyurt va shimoliy Qizilqum geografik kengligida ibtidoiy odamzod joylashib, etnik jarayonlarni olib borishiga geografik omillar imkon yaratgan. Albatta yuqorida qayd qilingan hududlarning geografik hususiyatlari, tabiiy-iqlim sharoiti ovchilarning turmush - tarzi, moddiy va ma‘naviy madaniyatiga ta’sir qilib, moslashgan geografik hudud doirasidan chiqib, qo‘shni hududlarni o‘zlashtirish obyektiga bo‘lgan. Manzilgohlarda aholi soni o‘sishi munosabati bilan vujudga kelgan hayotiy muammolar sabab (geografik o‘rin talabga javob bermasligi, tevarak - atrofdagi tabiiy resurs zaxirasi kamayishi, mehnat qurollarining tanqisligi), ovchilar tomonidan o‘zlashtirilmagan geografik hududlarni faol egallash jarayonlari jadal kechgan. Bu

<sup>29</sup> Итина М. А. История племен Южного Приаралья // Тр ХАЭ. – М.: “Наука”, 1977. Т. X. – С. 173.

<sup>30</sup> Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996. – Б. 5 - 6.; Баратов П., Маматкулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”. 2002. – Б. 7.

<sup>31</sup> Виноградов А. В., Итина М. А., Кесь А. С., Мамедов Е. Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек и его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. – М.: “Наука”. 1974. – С. 290 - 291.; Кабиrow Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент. “Ўқитувчи”. 1990. – Б. 14.

<sup>32</sup> Кабиrow Ж, Сагдуллаев А. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 20.

<sup>33</sup> Ибрагимов Р. З. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 18.

esa o‘z navbatida aloqa yo‘llarning vujudga kelishiga hamda safdoshlari bilan qon - qarindoshlik munosabatlarini olib borishiga imkon bergan<sup>34</sup>.

Tadqiqotchilarning xulosalari shubha tug‘diradi, negaki eneolit davri birinchi yarmi Tajan va Murg‘ob daryosi havzalari aholisi zich joylashganligi sabab, Yaqin Sharqdan aholi kelib joylashish imkoniyati yo‘qligi masalalari I. N. Xlopinning Geokso‘r vohasi, V. M. Massonning Murg‘ob vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlari natijalarini inobatga olish joiz<sup>35</sup>. Bronza davri (III ming yillik o‘rtalari – II ming yilliklar) jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida xo‘jalik - madaniy belgilari bilan alohida ajralib turishi bilan izohlanadi. Mazkur tarixiy davrda bronza davri jamiyatining notekis rivojlanishi eneolit davri aholisi moddiy madaniyati bilan o‘zaro bog‘liq holda kechgan.

Tadqiqotchilar asarlarida qayd qilingan ma‘lumotlardan ma‘lumki, O‘rta Osiyo mintaqasida bronza davri aholisining jamiyatni rivojlantirish borasida erishgan natijalari notekis holda kechganligini nazarga olib, moddiy va ma‘naviy hayot rivojlanish darajasini inobatga olib ularni alohida guruhlarga ajratish e‘tiborga olinmagan. Masalan, birinchi, ikkinchi va uchinchi guruhlarga ajratilganligi to‘g‘ri qayd qilingan. Holbuki, sakkizta guruhlarni tashkil etgan bronza davri aholisining kundalik faoliyatida (turar - joylar tuzilishi, yarim yerto‘la, kulolchilik ashyolari qo‘lda tayyorlanishi) uy chorvachiligi va “qayr” dehqonchiligi ustunligi jihatidan farqlanish hususiyatlarini inobatga olmaganlar.

Nazarimizcha, bronza davri aholisi jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarni rivojlantirgan Suvyorgan va Tozabog‘yob qabilalarining yaratgan madaniyati tarixiy adabiyotlar sahifasidan o‘rin olgan Amirobodliklar aholisi ma‘naviyatida temir ashyosidan mehnat qurollarini ishlab chiqib, kundalik faoliyatlarini olib borish imkoniyati mavjud emasligini Amudaryo suv sathining goh ko‘tarilishi, goh pasayishi natijasida vujudga kelgan mavsumiy manzilgohlar sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Darhaqiqat, Amirobodliklarning xo‘jalik sohasidagi olib borgan amaliy faoliyatlari tabiiy manbalarga serob bo‘lsa ham, turar-joylar o‘troqlashish, turar-joylar qurilishida Bahtariy qabilalari singari bilimlari ma‘naviy madaniyatida ancha uzoqda ekanligi natijasidir. Bunday tarixiy jarayonlar O‘zbekistonning Toshkent va Zarafshon vodiylarida o‘rnashgan aholi kundalik faoliyatlarida kuzatish mumkin. Misol tariqasida mil. avv. II ming yillik boshlari va o‘rtalarida Qozog‘istonning shimoli - sharqida ko‘chib kelgan chorvador aholi Andronovliklarning bir guruh vakillari Toshkent vodiysining Ohangaron vodiysiga va Zarafshon vohalariga kelib joylashib etnik jarayonlarni jadallashtirish jarayonida mahalliy aholi bilan omuxtalashishi natijasida vujudga kelgan yangi avlodlar turar-joy qurilishida eneolit davri an‘analari davom etgan. Tadqiqotchilar nashrlarida qayd qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra, Quyi Zarafshon daryosi havzalari tevarak atroflarida

<sup>34</sup> Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент. “Академия”. 2008. – Б. 8.

<sup>35</sup> Хлопин И. Н. Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита (Опыт исторического анализа). – М. – Л.: “Наука”. 1964. – С. 170.; О‘sha muallif. Энеолит Юго-запада Средней Азии. // (Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: “Наука”. 1966. – С. 95-96., Массон В. И. Алтындепе. – Л.: “Наука”. 1981. Т. XVIII. – С. 98 - 100.

oʻrnashib etnik munosabatlarni olib borgan aholi turar-joylari yarim yertoʻla shaklida yogʻoch ustunli chaylalar ustunligi saqlanib qolgan<sup>36</sup>.

Mil. avv. VII - V asrlarda Jarqoʻton yodgorligida istiqomat qilgan aholi yangi vakillari ota-bobolari vatanini butunlay tashlab, tabiiy-iqtisodiy manbaga ega boʻlgan hududlarni oʻzlashtirish siyosatini olib borganlar. Mil. avv. VII asrda jarqoʻtonlik hunarmandlar tomonidan Qiziltepa, Qarshi, Kesh va Smarakanda (Maroqanda-Afrosiyob) kabi qalʼalarni barpo qilingan. Smarakanda, Kesh, Qarshi shaharlari tarixi xalqaro miqyosda nishonlangan boʻlib, ularning tarixi Rim bilan tengdosh boʻlgan. Tadqiqotchilar xulosasiga koʻra, mil. avv. VII - V asrlarda Zarafshon vodiysida oʻrnashgan ziroatkor aholi bunyodkorlik faoliyati natijasida quyidagi dehqonchilik voaha-tumanlari shakllanib, etnik madaniy markazlar vazifasini bajargan.

1. Buxoro - Qorakoʻl vohasi: Qushobod, Chordara, Boʻston, Buxoro.

2. Oʻrta Zarafshon hududi: Afrosiyob - 1, 2, Koʻktepa.

3. Janubiy Zarafshon hududi: Yerqoʻrgʻon-1, 2, Uzunqir, Sangirtepa, Daratepa, Saroytepa, Somontepa<sup>37</sup>.

Ikkinchi bobning *“Oʻzbekistonda bronza asri va temir davri madaniy-xoʻjalik mikrovohalarning rivojlanish bosqichlari”* sarlavhali ikkinchi bandida mavzuga oid madaniy-xoʻjalik mikrovohalarning rivojlanishi yoritib berilgan.

Osiyo hududi tarkibiy qismi boʻlgan Oʻrta Osiyo mintaqasi yuzasi tuzilishi togʻli va tekislikdan iborat, uning rang-barangligini namoyon qilgan bir necha qismlarini fizik-geografik xaritasida kuzatish mumkin. Shunday qismlardan biri, Oʻrta Osiyo mintaqasi markazida Oʻzbekiston tekisligida joylashgan odamzot ekin-tekinlikni olib borishiga imkon berganligi bois Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon, Toshkent, Fargʻona va Surxon kabi dehqonchilik vohalarida kundalik amaliy mashgʻulotlarini olib borishi barobarida etnik munosabatlar geografiasini kengaytirganlar<sup>38</sup>.

Oʻzbekiston tarixiy-madaniy viloyatlar tarixida sifat va miqdoriy hamda etnik jarayonlarda tub oʻzgarishlari bilan muhim davr hisoblanadi. Bronza jamiyatining rivojlanishida eneolit davri notekis rivojlanishi anʼanalari saqlanib qolganligini kuzatish qiyin emas. Masalan, Ustyurt hududi keng tekislik, suv manbasini oʻziga hos hususiyatini, uning toʻrt tomoni ochiqligini belgilab bergan-ki, tosh davrining ilk bosqichidan boshlab bronza davrida moslashgan hududda istiqomat qilib oʻzlarining taqdirini temir davrigacha olib borganlar<sup>39</sup>.

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha Ustyurt shimoli-sharqiy hududlarida temir davri ohirlarida aholi joylashib istehkomli qalʼalarni bunyod qilganlar. Ustyurtning janubi-sharqiy hududiga ulanib ketgan Quyi Amudaryo hududi geografik holati, uning gidrologiyasi, aholining joylashishi, turar-joylar qurilishi yarim yertoʻla shaklida, xoʻjalik sohalariga yangi koʻrinishlarni jalb qilganlar. Umuman, bronza

<sup>36</sup> Гулямов Я. Г., Исломов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орашаемого земледелия в Низовьях Зарафшана. – Ташкент. “Фан”, 1966. – С.187-195.

<sup>37</sup> Ешов.Б. Ж., Адиллов А. А. Ўзбекистон тарихи (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача). – Тошкент. 2014. – Б.109.

<sup>38</sup> Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент. “Ўқитувчи”, 1996. – Б. 5-7.

<sup>39</sup> Байбаков К. М., Таймагамбетов Ж. К. Археология Казакстана. – Алматы. Казак университет, 2006. – С. 116-117.

davrida O'рта Osiyo mintaqasida O'zbekiston hududi madaniy-xo'jalik viloyatlarida aholi tomonidan chorvachilik va dehqonchilikning "qayr" uslubini rivojlantirib, oziq-ovqat mahsulotlari miqdorini ko'paytirib ishlab chiqarish xo'jaligi uslubiga qadam tashlaganlar. Bunday tarixiy jarayon O'рта Osiyoni markaziy, shimoli-sharqiy hududlarida davom etgan. O'рта Osiyoning janubida esa aholining moddiy va ma'naviy madaniyatida yuksalish jarayoni kuzatiladi. Bu jarayon turar-joylarning paxsa va to'g'ri burchakli xom g'ishtli turar joylarning qurilishi, ularning sifat va miqdoriy jihatdan o'zgarishlari aholining ma'lum hududda zich joylashishi ko'zga tashlanadi.

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, mil avv. VIII - VII asrlarda Jarqo'ton shahri aholisi kundalik faoliyatlari davom etganligiga oid ashyolar olingan<sup>40</sup>.

Surxon vohasida ekin-tekinklikka qulay janubiy-g'arbdan Muzrabod va Sherobod cho'llari, shimoli-g'arbda Bandixon, Qiziriqdara va Xalqajar daryosigacha davom etgan pasttekislik bo'lgan. Xuddi shu geografik kenglik Jarqo'ton aholisi tomonidan o'zlashtirilgan. So'nggi bronza dehqonchilik markazlari Ulanbuloqsoy va Sherobod daryosi quyi havzasida joylashgan<sup>41</sup>. Jarqo'ton aholisi tomonidan quyidagi dehqonchilik vohalari o'zlashtirilishi natijasida turar-joylar bosh bo'lgan mikrovohalar shakllangan.

Sherobod sug'orilish madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi - Jondavlat<sup>42</sup>.

Sho'rchi sug'orilish madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Qiziltepa<sup>43</sup>.

Jarqo'rg'on sug'orilish madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Haitobod<sup>44</sup>.

Amudaryo o'ng sohili madaniy-xo'jalik markazi mikrovohasi Eski Termiz<sup>45</sup>.

Mil. avv. IX asrda Surxondaryo vohasi shimoli-g'arbiy hudud geografik manzarasini hosil qilgan Muzrabod dashti o'troq ziroatkor aholi vakillari tomonidan o'zlashtirilgan. Mil. avv. XVII - XV asrlarda Sopollitepa tevarak-atrofni qamrab olgan mikrovoha markazi bo'lgan. Mazkur jarayon ijodkorlari nazarimizcha, Sopollitepa aholisi son miqdori oshganligi sabab, cheklangan hudud doirasidan chiqib, binokorlik bilimini qo'shni hududlarga yoyish vazifasini bajarishga majbur bo'lganlar. Shu ma'noda Sherobod daryosi Bo'stonsoy irmog'i sohili etagiga ulangan balandlikka istehkomli Jarqo'ton yodgorligiga asos solganlar<sup>46</sup>.

O'рта Zarafshon hududida katta hajmli shahar sifatida madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi bo'lgan<sup>47</sup>. Mil. avv. V asrda Buxoro vohasi urbanizatsiyaning

<sup>40</sup> Хуффа Д., Шайдуллаев Ш. Б. Некоторые результаты работ узбекско-германской экспедиции на городище Джаркутан // ИМКУ – Самарканд, 1999. Вып-30. – С. 19 - 20.

